ZANGORI SACHRATQI *(CICHORIUM INTYBUS)* O‘SIMLIGINING MORFOBIOLOGIYASI

Suyunboyeva Marjona Farxod qizi, Sayetova Gulnoz Bobosher qizi
Samarqand Davlat Pedagogika instituti 2-kurs talabalari
https://doi.org/10.5281/zenodo.19689197

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zangori sachratqi ya`ni oddiy sachratqi haqida umumiy ma`lumot, o`sish hududlari, dorivorlik xususiyatlari tashqi tuziloshi va fiziologiyasi haqida ma`lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari oddiy sachratqining qishloq xo`jaligidagi va tabobatdagi roli ham bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar. *Savatchasimon, gultojbarg, glikozid intibin, karotin, vitamin, dorivor, tabobat va mikroelementlar.*

Abstract. *This article provides general information about the common sedge, i.e. the common sedge, its growing areas, medicinal properties, and in general, its morphobiology. In addition, the role and importance of the common sedge in agriculture and medicine are also described.*

Keywords: *Sedge, sedge, glycoside intibin, perennial, carotene, vitamin, medicine, medicine and microelements.*

Аннотация. *В статье приведены общие сведения об осоке лекарственной, её ареалах произрастания, лекарственных свойствах и, в целом, о её морфобиологии. Также описываются роль и значение осоки лекарственной в сельском хозяйстве и медицине.*

Ключевые слова: *Корзинковидная, бархатцы, гликозид интибин, многолетник, каротин, витамин, лекарственный, и микроэлементы*

Sachratqi – Asteraceae oilasiga kiruvchi ko‘p yillik o‘simlik. Zangori sachratqining sistematikasi quyidagicha:

№	**Sistematik birliklar**	**Mahalliy nomi**	**Ilmiy nomi**
1	**Bo‘lim**	magnoliyatoifa	Magnoliophyta
2	**Sinf**	magnoliyasimonlar	Magnoliopsida
3	**Qabila**		
4	**Oila**	Astraguldoshlar	Asteraceae
5	**Turkum**	sachratqi	Cichorium
6	**Tur**	zangori sachratqi	Cichorium intybus L

Poyasi tik o‘suvchi va uzun tuklar bilan qoplangan, barglar qarama-qarshi joylashgan.[5] Gullari ko‘k, kalta savatchalarda joylashgan. Sachratqi mevalari -pardasimon popukli, prizmasimon pistacha. Bitta sachratqi to‘pidan 3-25 ming dona urug olish mumkin.. Sachratqi yozda gullab, yozning oxiridan kuzning o‘rtalariga qadar mevalaydi. [1]

1-rasm



Zangori sachratqi adirlik zonasida Toshkent, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida keng tarqalgan, quyi va o‘rta tog‘ mintaqasining toshli va shag‘alli qiyaliklarda o‘sadi.Sachratqining ildizi kuzda sentyabr-oktyabr oylarida yig‘ib olinadi.Buning uchun ular birinchi navbatda belkurak yordamida kovlanadi.Shundan so‘ng ildizlar yordamida ajratiladi, yuviladi hamda quritiladi.Ildizni quritishdan oldin poyaning keraksiz qismidan tozalanadi.Ildizlar yo‘g‘on va uzun bo‘lsa, ular bo‘ylamasiga va ko‘ndalangiga bir necha bo‘laklarga bo‘linib, quriqgichda 50-60 C haroratda quritiladi. Tashqi tomondan ozgina jigarrang, ichi oq yoki sarg‘ish bo‘ladi. U o‘ziga xos hidga ega emas, faqat achchiq ta’mga ega. Yer usti qismi olinib, giyoh tayyorlanadi;sachratqi novdasining yuqori qismi gullash davrida yig‘iladi, alohida bo‘laklarga bo‘linib, havo yaxshi aylanadigan soya joylarda quritiladi. Sachratqi o‘simligining kimyoviy tarkibi olimlar tomonidan o‘rganilganda uning ayrim xususiyatlarini hisobga olgan holda shifobaxsh o‘simliklar sirasiga kiritamiz. Kimyoviy tarkibi quyidagicha: sachratqi ildizida 60 % gacha inulin, 10-20% fruktoza shuningdek, karotin, B1, B2, B3 vitaminlar guruhlari, C vitamini, makro va mikroelementlar Na, K, Ca, Mg, P, Fe va boshqalar, organik kislotalar, taninlar, pektin, oqsil moddalari, smolalar mavjud.Sachratqi ildizi tarkibida qimmqtli modda inulin mavjud bo‘lib, metabolizmni yaxshilaydi va ovqat hazm qilish tizimining faolyatini normallashtiradi.Sachratqi ildizi qadimgi Rimda ovqatni hazm qilishni yaxshilash uchun ishlatilgan, Misrda undan ilon va o‘rgimchak chaqqanida zaharga qarshi zardob tayyorlashgan. [2] Mashhur Abu Ali ibn Sino oshqozon-ichak trakti va ko‘z kasalliklari, ko‘z yallig‘lanishi hamda podagra kasalliklarini davolashda sachratqi qo‘llanilgan. Zamonaviy tibbiyotda sachratqi o‘zining foydali dorivor xususiyatlari (tinchlantiruvchi, shakar miqdorini pasaytiruvchi, o‘t haydovchi, siydik haydovchi, yallig‘lanishga qarshi, isitma tushiruvchi, gijja haydovchi xususiyatlari) tufayli o‘z ahamiyatga ega o‘simlikdir.[3]

Xulosa qilib aytganda, zangori sachratqini tashqi ya’ni morfologik tuzilishi va fiziologiyasi nazariy tomondan o‘rganildi. Kimyoviy jihati o‘rganilganda, insonlarda uchraydigan kasalliklarga ham yechim bo‘luvchi minerallar borligi aniqlandi. Umumiy qilib aytganda o‘simlikning vegetativ va generativ organlaridan tayyorlangan giyohlar xalq tabobatida keng qo‘llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Abdiyeva.T.O “O‘zbekistonning dorivor o‘simliklari”, // O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Namangan 2023.

2.Akbarova.M.X, Yusupova.Z.A “O‘zbekistonning dorivor o‘simliklari”, // Darslik. Toshkent 2025.

3.Jo‘rayeva.M.A “ Dorivor o‘simliklar atlasi”, // O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston 2019.

4.Islomov.B, Hasanov.M Botanika darslik. Samarqand 2020.

5. Mahmudov.V, Mahmudov.A.V “ Dorivor o‘simliklar flora va sistematikasi fanidan amaliy mashg‘ulotlar”, // O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston 2024